O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZAGROLIZING”
AKSIYADORLIK JAMIYATI

REPUBLIC OF UZBEKISTAN
“UZAGROLEASING”
JOINT STOCK COMPANY

2025-yil “ 26 ” may 47 i/ch-sonli

B U Y R U Q

Nizom va xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6247-son Farmoniga asosan,

B U Y U R A M A N :

1. “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyatida Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tarttibi to‘g‘risida Nizom” 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “O‘zagrolizing” AJ ehtiyoji uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xarid qilinishini ta’minlash bo‘yicha 2-ilovaga muvofiq xarid komissiyasi tuzilsin.

3. Xarid komissiyasi tomonidan davlat xaridlari “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyatida Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tarttibi to‘g‘risida Nizomda belgilangan tartib-taomillarga qat’iy rioya etilgan holda tashkil etilishi va o‘tkazilishi ta’minlansin.

4. Belgilansinki:

- Jamiyat markaziy apparati va uning hududiy filiallarida davlat xaridlari doirasida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishga Jamiyatning Xo‘jalik ta’minoti bo‘limi (Tuxtapo’latov) mas’ul etib belgilansin;

- shartnoma imzolangandan so‘ng yetkazib berilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni qabul qilib olishga shaxsan tashabbuskor tarkibiy tuzilma mas’ul hisoblanib, bunda, tashabbuskor tarkibiy tuzilma tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni qabul qilishni rad etgan taqdirda, bu to‘g‘risida zudlik bilan Xo‘jalik ta’minoti bo‘limini (qabul qilishni rad etish dalolatnomasini ilova qilgan holda) xabardor etilishini ta’minlasin.

5. Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishning qonuniyligini ta’minlash xarid komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

6. Murojaatlar bilan ishlash va ijro intizomi bo‘limi (Kurbanbayev) buyruq nusxasini Jamiyatning tegishli boshqarma (bo‘lim)lariga yetkazilishini ta’minlasin.

7. Jamiyatning 2025-yil 24-apreldagi 36 i/ch-sonli buyrug‘ining 3-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisining o‘rinbosari **A.Nasirdinov**

Kiritildi:
Bo‘lim boshlig‘i X.Xamdamov

Kelishildi:

Boshqarma boshlig‘i E. Qurbonov

Boshqarma boshlig‘i N. Meliboyev

Bosh buxgalter Sh. Qodirova

Yuridik boshqarma E.Allamov

Tanishdim:

1. Хамдамов Х.У
2. Мелибоев Н.Т
3. Курбонов Э.С
4. Алламов Э
5. Кодирова Ш
6. _____
7. _____
8. _____

"O'zagrolizing" AJning
2025-yil 26- maydagi
47 -sonli buyrug'iga
1-ilova

"O'ZAGROLIZING" AKSIYADORLIK JAMIYATIDA DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ TARTIB-TAOMILLARNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TARTIBI TO'G'RISIDA NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom "O'zagrolizing" Ajda O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga (keyingi o'rinlarda — Qonun) muvofiq davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

avans to'lovi — qonunchilikda belgilangan tartibda davlat buyurtmachisi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan, davlat xaridlarining elektron tizimi operatorining vositachilik yig'imini va tomonlarning zakalatini o'z ichiga olgan moliyaviy mablag'lar summasi;

vakolatli organ — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

vositachilik yig'imi — davlat xaridlarining elektron tizimi operatorining xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlari uchun undiriladigan yig'im;

zakalat — korporativ buyurtmachi tomonidan elektron do'kon yoki boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion natijasida tuzilgan shartnoma bo'yicha to'lovlar to'liq hajmda amalga oshirilishini ta'minlash hamda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari tomonidan o'zlarining takliflarini ta'minlash usuli;

davlat buyurtmachisi — davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya — vakolatli organ tomonidan shikoyatlarni adolatli, tezkor va samarali ko'rib chiqish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan davlat organlari, davlat xaridlari elektron tizimining operatorlari va jamoatchilik vakillaridan iborat tarkibda tuziladigan komissiya;

davlat xaridlarining reja-jadvali — davlat buyurtmachisi tomonidan yil va chorak davomida xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi ma'lumotlarni nazarda tutuvchi hujjat;

davlat xaridlarining elektron tizimi — elektron davlat xaridlari jarayonidagi xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazishda davlat xaridlarining subyektlari hamkorligini ta'minlaydigan tashkiliy, axborotga oid va texnik yechimlarning dasturiy majmui;

davlat xaridlari elektron tizimining operatori (keyingi o'rinlarda — operator) — davlat xaridlarining subyektlariga davlat xaridlarining elektron tizimlarida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatadigan, vakolatli organ tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli yuridik shaxs;

lot — turli belgilari bo'yicha guruhlashtirilgan (foydalanish, texnik va funksional xususiyatlariga ko'ra) bir xil turdagi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) jamlanmasi sifatida davlat buyurtmachisi tomonidan belgilangan va alohida davlat xaridlari to'g'risidagi shartnoma bo'yicha xarid predmeti hisobalandigan miqdoriy qism;

shaxsiy kabinet — elektron davlat xaridlarida ishtirok etishni hamda zarur axborotni joylashtirishni va undan foydalanishni ta'minlaydigan, davlat xaridlari subyektlari, xarid komissiyasining mas'ul kotibi, xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazoratini amalga oshiruvchi

davlat organlarining maxsus axborot portalidagi va (yoki) davlat xaridlarining elektron tizimidagi individual sahifasi;

elektron taklif — eng yaxshi takliflarni tanlash va tender tartib-taomilida qatnashish uchun xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi o'z shaxsiy kabineti orqali elektron ko'rinishda yuboradigan taklif;

qadam o'lchovi — boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksionning boshlang'ich va/yoki o'zidan oldingi xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisining narxini pasaytirishning foiz ko'rinishida belgilanadigan intervali;

hisob-kitob-kliring palatasi (keyingi o'rinlarda — HKKP) — avans to'lovlarini deponentlash va ularni hisobga olish yo'li bilan davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajara oladigan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari elektron davlat xaridlariga kirishini ta'minlovchi davlat xaridlari elektron tizimining tarkibiy bo'linmasi.

3. Korporativ buyurtmachilar 2022-yil 1-iyuldan boshlab davlat xaridini amalga oshirishda ushbu Nizomning 7-bobiga muvofiq hadli kelishuv tartib-taomilidan ham foydalanishi mumkin.

4. Davlat buyurtmachisining davlat xaridlariga tayyorgarligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

maxsus axborot portalida davlat xaridlarining reja-jadvallarini joylashtirish;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun avans to'lovlarini kiritish;

davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat xaridlari o'tkazilishi haqidagi e'lonlarni joylashtirish;

maxsus axborot portalida davlat buyurtmachisi o'zi bilan affillangan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni joylashtirish.

5. Davlat xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallarini maxsus axborot portalida joylashtirish tartibi va muddatlari Qonunning 29-moddasiga asosan belgilanadi.

Davlat buyurtmachilari davlat xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi mumkin.

Bunda xarid qilish tartib-taomili o'tkazilishidan kamida uch ish kuni oldin davlat xaridlari reja-jadvallariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yiladi.

6. Davlat xaridlarining reja-jadvali quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

xarid predmeti;

xarid predmetining miqdori va narxi;

xarid o'tkaziladigan oy;

davlat buyurtmachisining nomi va manzili;

xarid predmetini moliyalashtirish manbalari va muddatlari;

tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish joyi (manzili).

7. Davlat buyurtmachisi bilan manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi (keyingi o'rinlarda — ishtirokchi) bo'lishi mumkin emas.

2-bob. Elektron davlat xaridlarini o'tkazishning umumiy shartlari

8. Elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun:

korporativ buyurtmachi va ishtirokchilar operatorning vositachilik yig'imini va tomonlarning zakalatini (bundan xarid komissiyasi tomonidan zakalat to'lash talabi belgilamagan hollar mustasno);

budjet buyurtmachisi operatorning vositachilik yig'imini HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlariga o'tkazadilar.

Budjet buyurtmachisi elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun zakalatni HKKPga o'tkazishi talab etilmaydi.

9. Davlat buyurtmachisi va ishtirokchilar elektron davlat xaridlaridagi ishtiroklarini elektron raqamli imzolardan (keyingi o'rinlarda — ERI) foydalangan holda amalga oshiradi. Davlat buyurtmachisi va ishtirokchining ERIdan foydalanib davlat xaridlarining elektron tizimi orqali tuzgan davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalari haqiqiy hisoblanadi.

10. Budjet buyurtmachilari e'lon yoki oferta bo'yicha Moliya vazirligining davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — DMBAT) tomonidan band qo'yilgan summasining, shuningdek, ularning HKKPdagi hisobvaraqlarida operatorning vositachilik yig'imi summasining yetarli miqdori mavjud bo'lgan taqdirda, elektron davlat xaridlarida ishtirok etadilar.

11. Korporativ buyurtmachilar va ishtirokchilar, ularning HKKPdagi hisobvaraqlarida davlat xaridlarining elektron tizimi operatorining vositachilik yig'imi va tomonlarning zakalati summasini to'lash uchun yetarli bo'lgan avans to'lovini o'tkazgandan so'ng elektron davlat xaridlarida ishtirok etadilar.

12. Budjet buyurtmachisi tomonidan shaxsiy kabinet orqali auksion, tanlash va tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon joylashtirilib yoki elektron do'konda ishtirokchining ofertasi tanlanib, davlat xaridlarining elektron tizimi elektron davlat xaridlari yakunlariga ko'ra tuziladigan shartnomaviy majburiyatlarni bajarish uchun moliyalashtirish manbalarini inobatga olgan holda kerakli summaga band qo'yish to'g'risidagi axborotni DMBATdan olgandan so'ng ushbu e'lonni yoki tanlangan oferta bo'yicha narxlar so'rovi mexanizmini faollashtiradi.

13. Auksion ishtirokchisi zakalati boshqa ishtirokchi tomonidan undan ko'ra pastroq narxdagi taklif berilgunga qadar band qilib qo'yiladi.

Elektron do'kon ishtirokchilarining zakalati g'olib aniqlangunga qadar operator tomonidan band qilib qo'yiladi.

Elektron do'kon va auksion o'tkazishda korporativ buyurtmachi va davlat xaridlari ijrochisining (keyingi o'rinlarda — ijrochi) kiritgan zakalatlari shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgan yoki belgilangan tartibda bekor qilingunga qadar band qilib qo'yiladi.

14. Korporativ buyurtmachilar va ishtirokchilar HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlariga:

elektron do'konda ishtirok etishdan oldin ishtirokchining ofertasi qiymatining 3 foizi miqdorida;

auksionda ishtirok etishdan oldin auksionning boshlang'ich narxidan 3 foiz miqdorida zakalat o'tkazadilar.

15. Davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash yoki tender o'tkazishda ishtirokchilar tomonidan zakalat kiritish zarurati hamda kiritiladigan zakalat miqdori xarid komissiyasi tomonidan belgilanadi. Ishtirokchilarning zakalati operator tomonidan g'olib aniqlangunga qadar band qilib qo'yiladi.

Tanlash yoki tender g'olibining zakalati shartnoma tuzilguniga qadar band qilib qo'yiladi. Bunda g'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda, unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi va mazkur mablag'lar operator tomonidan davlat buyurtmachilarining tegishli hisobvarag'iga (budjet buyurtmachisining budjetdan tashqari tegishli hisobvarag'iga) o'tkazib beriladi.

Tanlash yoki tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ijrochining kiritgan zakalati shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgan yoki belgilangan tartibda bekor qilingunga qadar band qilib qo'yiladi.

Zakalat miqdori tanlashni o'tkazishda tovar (ish, xizmat) qiymatining 3 foizidan, tender o'tkazishda esa 5 foizidan oshmagan holda belgilanishiga yo'l qo'yiladi. Bunda xarid komissiyasi ishtirokchilarga nisbatan takliflarning garov yoki kafolat tarzida yoxud qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa usulda ta'minlanishi zarurligi to'g'risidagi talabni belgilashga haqli.

16. Operator tomonidan davlat buyurtmachisi va ishtirokchilardan undiriladigan vositachilik yig'imi miqdori vakolatli organ tomonidan belgilanadi va barcha operatorlar uchun yagona hisoblanadi.

17. Operator hisob-kitoblarni tashkil etish, hisobini yuritish, hamda korporativ buyurtmachilar va ishtirokchilarning shartnomaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida operatorga xizmat ko'rsatuvchi bankda HKKP uchun alohida ikkilamchi bank hisobvarag'ini ochadi.

Operator shartnomaviy majburiyatlar bajarilishini ta'minlash va alohida hisobini yuritish bo'yicha korporativ buyurtmachilar va ishtirokchilar uchun HKKPda alohida hisobvaraq ochadi.

18. Moliya vazirligi budjet buyurtmachilarining hisob-kitoblarini tashkil etish, shartnoma bo'yicha majburiyatlari bajarilishi hisobini yuritish va ta'minlash maqsadida operator uchun Moliya vazirligining axborot tizimida shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochadi va unga ushbu hisobvaraqlardagi mablag'larni boshqarish uchun ruxsat beradi.

Operator budjet buyurtmachilariga hisobni alohida-alohida yuritish va shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishini ta'minlash uchun HKKPda hisobvaraqlar ochadi.

19. Davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik rejimda quyidagilarni amalga oshiradi:

davlat buyurtmachisi va ishtirokchiga kiritilgan avans summasiga muvofiq har bir lot bo'yicha elektron davlat xaridlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;

elektron davlat xaridlarini o'tkazish;

ishtirokchilarni aniqlash va shartnomani shakllantirish;

elektron davlat xaridlari ishtirokchilarining takliflarini Soliq qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Adliya vazirligi ma'lumotlar bazalariga integratsiyalashuvi orqali baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasini ta'minlaydi.

20. Operatorlar ma'lumotlar bazalarining elektron hamkorligi orqali Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi, Qurilish vazirligi, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan elektron hujjatlar aylanmasini hamda davlat xaridlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan axborot almashinuvini ta'minlaydi.

21. Elektron davlat xaridlarining yakuniga ko'ra davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda namunaviy shakl asosida shartnoma shakllantiriladi va shartnoma tomonlarining shaxsiy kabinetlariga yuboriladi, shuningdek, tuzilgan shartnomalar elektron reyestriga kiritish orqali ro'yxatdan o'tkaziladi.

22. Operator tuzilgan shartnomalar bo'yicha axborotni Moliya vazirligi va operatorning ma'lumotlar bazalari elektron hamkorligi orqali Moliya vazirligiga yuboradi.

23. Moliya vazirligi shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborotni qabul qilgandan so'ng budjet buyurtmachilarining shartnomalarini bir ish kuni mobaynida avtomatik tartibda DMBATda ro'yxatdan o'tkazadi yoki hisobga oladi, shuningdek, elektron do'kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma summasini HKKPga o'tkazib beradi.

Budjet buyurtmachisi tanlash yoki tender natijasida tuzilgan shartnoma bo'yicha to'lovlarni HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlaridan foydalanmagan holda amalga oshiradi. Bunda oldindan to'lov shartlari shartnomada nazarda tutiladi.

24. Korporativ buyurtmachilar elektron do'kon yoki auksion natijasida tuzilgan shartnoma bo'yicha to'lovlarni to'liq hajmda amalga oshirish uchun ushbu shartnoma davlat xaridlarining elektron tizimida ro'yxatga olingan paytdan boshlab o'n ish kuni mobaynida o'zlarining HKKPdagi hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazadilar. Bunda zakalat shartnoma bo'yicha to'lov summasiga qo'shib hisoblanishi mumkin.

Korporativ buyurtmachilar tanlash yoki tender natijasida tuzilgan shartnoma bo'yicha to'lovlarni HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlaridan foydalangan holda amalga oshirishi mumkin.

25. Agarda korporativ buyurtmachi elektron do‘kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnomada belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshirmasa, uning zakalati bir ish kunida ijrochining HKKPdagi tegishli hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

26. HKKP davlat buyurtmachisidan elektron do‘kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma bo‘yicha tushgan to‘lov summasini band qilib qo‘yadi va mablag‘lar tushgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan bu haqida ijrochiga xabarnoma yuboradi.

Mazkur xabarnoma ijrochiga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

27. Ijrochi HKKP tomonidan mablag‘ tushganligi to‘g‘risidagi xabarnoma yuborilishidan oldin tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib bergan taqdirda, davlat buyurtmachisi tomonidan qabul qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha to‘lov amalga oshirilmasligi bilan bog‘liq xatarlar ijrochining zimmasida bo‘ladi.

28. Korporativ buyurtmachi elektron do‘kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma asosida tovarni (ishni, xizmatni) to‘liq qabul qilganidan keyin uch ish kuni mobaynida bu to‘g‘risidagi axborotni o‘zining shaxsiy kabinetidan foydalangan holda operatorga yuborishga majbur.

29. Budjet buyurtmachisi elektron do‘kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma asosida tovarni (ishni, xizmatni) to‘liq qabul qilgandan so‘ng uch ish kuni mobaynida bu to‘g‘risidagi axborotni budjet tashkilotlarining hisobi va hisobotlari avtomatlashtirilgan tizimining dasturiy kompleksi orqali DMBATga kiritishga va yuborishga majbur.

30. DMBAT budjet buyurtmachisining shartnoma asosida tovarni (ishni, xizmatni) qabul qilganligi to‘g‘risidagi axborotni olgandan keyin uni bir ish kuni mobaynida ma’lumotlar bazalarining elektron almashinuvi orqali operatorga yuboradi.

31. Operator tovarlar (ishlar, xizmatlar) elektron do‘kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma bo‘yicha to‘liq hajmda yetkazilganligi haqidagi ma’lumotni olgandan so‘ng bir ish kuni davomida:

elektron to‘lov topshiriqnomasini shakllantiradi va DMBATga yuboradi, u esa to‘lov topshiriqnomasini olgandan so‘ng bir ish kuni davomida budjet buyurtmachilarining pul mablag‘larini ijrochiga yuboradi;

elektron to‘lov topshiriqnomasini shakllantiradi va operatorga xizmat ko‘rsatuvchi bankka yuboradi, u esa to‘lov topshiriqnomasini olgandan so‘ng bir ish kuni mobaynida korporativ buyurtmachilarning mablag‘larini ijrochiga yuboradi;

ijrochining zakalatiga qo‘yilgan bandni bekor qiladi va tegishli shaxsiy hisobvarag‘iga qaytaradi;

zakalatni banddan yechadi va korporativ buyurtmachining tegishli shaxsiy hisobvarag‘iga qaytaradi, bundan zakalat shartnoma bo‘yicha to‘lash summasiga qo‘shib hisoblangan hollar mustasno;

elektron do‘kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilganligi haqidagi ma’lumotni davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiradi.

32. Operator tanlash yoki tender natijasida shartnoma tuzilganidan so‘ng bir ish kuni davomida zakalatni banddan yechadi va uni ijrochining tegishli shaxsiy hisobvarag‘iga qaytaradi.

Korporativ buyurtmachi tomonidan o‘tkazilgan tanlash yoki tenderda ishtirokchilar va ijrochi tomonidan kiritilgan zakalat shartnoma tuzilganidan so‘ng operator tomonidan bir ish kuni davomida banddan yechiladi va ularning tegishli shaxsiy hisobvarag‘iga qaytariladi.

Agar tanlash yoki tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida ijrochining kiritgan zakalati shartnoma bo‘yicha majburiyatlar to‘liq bajarilgan yoki belgilangan tartibda bekor qilingunga qadar band qilib qo‘yilishini nazarda tutuvchi talab belgilangan bo‘lsa, zakalat ushbu talablar bajarilgunga qadar banddan yechilmaydi.

33. Elektron do‘kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma bo‘yicha yetkazib berish muddati tugagandan so‘ng tovarlar (ishlarni, xizmatlar) yetkazib berilganligi haqidagi ma’lumot

mavjud bo'lmasa, davlat xaridlarining elektron tizimi bir ish kuni mobaynida avtomatik rejimda davlat buyurtmachisi va Moliya vazirligini xabardor qiladi.

34. Davlat buyurtmachisi tomonidan elektron do'kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilganligi haqidagi ma'lumot taqdim qilinmaganda. HKKP ushbu shartnoma bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib berish muddati tugagach uch ish kunidan so'ng:

budjet buyurtmachilarning shartnoma bo'yicha mablag'lariga sud yoki Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaning tegishli qarori qabul qilinguniga yoki shartnoma bekor qilingunga qadar band qo'yadi;

korporativ buyurtmachi tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha kiritilgan mablag'lardan bandni bekor qiladi, bundan zakalat summasi mustasno;

korporativ buyurtmachi va ijrochining zakalatiga sud yoki Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaning tegishli qarori qabul qilinguniga yoki shartnoma bekor qilingunga qadar band qo'yadi;

bajarilmagan shartnomalar bo'yicha ma'lumotlarni Moliya vazirligiga yuboradi.

35. HKKP sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya qarori asosida zakalatni banddan yechishni va (yoki) tegishli hisobvaraqqa o'tkazishni amalga oshiradi.

Bunda HKKP ijrochining zakalati budjet buyurtmachisiga o'tkazilishi to'g'risidagi sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya qarori asosida zakalatni budjet buyurtmachisining budjetdan tashqari tegishli hisobvarag'iga o'tkazishni amalga oshiradi.

36. Operatorning vositachilik yig'imi davlat xaridlarining yakunlariga ko'ra bitimning haqiqiy summasidan kelib chiqib davlat buyurtmachisi va ishtirokchining avans to'lovlaridan davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan ushlab qolinadi.

37. Ishtirokchilarning va korporativ buyurtmachilarning bandi bekor qilingan mablag'lari ularning topshiriqlariga asosan boshqa elektron davlat xaridlarida avans to'lovlari sifatida foydalanilishi mumkin yoki ularga xizmat ko'rsatadigan banklardagi hisobvaraqlariga qaytariladi.

3-bob. Elektron do'kon

1-§. Elektron do'kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirishning umumiy shartlari

38. Elektron do'kon vositasidagi davlat xaridlari Qonunning 5-bobi hamda ushbu Nizomga **1-ilovada** keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

39. Elektron do'kon vositasidagi davlat xaridi Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Budjet buyurtmachisi tomonidan elektron do'kon orqali tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) milliy klassifikatoriga muvofiq guruhlashtirilgan ayni bir turdagi tovarlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining o'n ming baravarigacha amalga oshirilishi mumkin.

Budjet buyurtmachisi tomonidan elektron do'kon orqali tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) milliy klassifikatoriga muvofiq guruhlashtirilgan ayni bir turdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravarigacha (korporativ buyurtmachilar uchun — bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravarigacha) amalga oshirilishi mumkin.

40. Ishtirokchi tomonidan elektron do'konda joylashtirilgan taklifda Qonunning 50-moddasida qayd etilgan ma'lumotlar va tovarni yetkazib berish muddati ko'rsatiladi.

Ishtirokchi elektron do'konda o'zi joylashtirgan axborotning ishonchliligi bo'yicha javobgar bo'ladi.

2-§. Elektron do‘kon orqali davlat xaridlarini amalga oshirish

41. Elektron do‘kon orqali davlat xaridlari narxlar so‘rovi mexanizmidan foydalangan holda Qonunning 51-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

42. Narxlar so‘rovi mexanizmi davlat buyurtmachisiga o‘xshash tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) taklif etayotgan ishtirokchilardan pastroq narxni so‘rash imkoniyatini taqdim etadigan davlat xaridlarining elektron tizimi funksiyasidan iborat.

43. Agar narx so‘rovi mobaynida ishtirokchi tomonidan taklif qilingan summa davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan summadan 20 va undan ortiq foizga past bo‘lsa, ishtirokchi davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan ofertaning summasi va o‘zi tomonidan taklif etilgan summaning farqi miqdoridagi qo‘shimcha zakalatni oldindan kiritishi shart. Bunda ofertaning summasi:

bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravaridan oshmaydigan hollarda qo‘shimcha zakalat summasi bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan;

bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravaridan oshgan hollarda qo‘shimcha zakalat summasi bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravaridan oshmasligi kerak.

Qo‘shimcha zakalat mavjud bo‘lmagan taqdirda, ushbu takliflar davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda rad etiladi.

44. Ijrochi va ishtirokchilar to‘g‘risidagi ma’lumot (ularning nomi, STIR, taklif summalari) g‘olib aniqlangan paytda davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettiriladi.

45. Davlat buyurtmachilari elektron do‘konning qo‘shimcha sahifasidan foydalangan holda davlat xaridlarini hududlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) bo‘yicha mahalliy ishlab chiqaruvchilar (ishni bajaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar) o‘rtasida amalga oshirishi mumkin.

Bunda elektron do‘konning qo‘shimcha sahifasidan foydalanish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

buyurtmachi elektron do‘konda “milliy do‘kon” yacheykasini tanlaydi;

davlat xaridlarining elektron tizimi buyurtmachi joylashgan hudud bo‘yicha mahalliy ishlab chiqaruvchilarning (ishni bajaruvchilarning, xizmat ko‘rsatuvchilarning) takliflari joylashtirilgan qo‘shimcha sahifani ochadi.

“Milliy do‘kon” yacheykasining “qidiruv” tugmasidan foydalanilganda davlat xaridlarining elektron tizimi buyurtmachi joylashgan hududdagi mahalliy ishlab chiqaruvchilar (ishni bajaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar) tomonidan yetkazib beriladigan tovarni (ishni, xizmatni) qidiradi.

46. “Milliy do‘kon” orqali xaridlarni amalga oshirishda davlat xaridlarining elektron tizimi narxlar so‘rovi mexanizmini faqat buyurtmachi joylashgan hududdagi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) mahalliy ishlab chiqaruvchilar (ishni bajaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar) orasida yuborilishini ta’minlaydi.

4-bob. Auksion

1-§. Auksion vositasida davlat xaridlarini amalga oshirishning umumiy shartlari

47. Auksion vositasidagi davlat xaridlari Qonunning 6-bobi va ushbu Nizomga **2-ilovada** keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

48. Auksion vositasidagi davlat xaridi Qonunning 52-moddasida belgilangan mezonlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

2-§. Auksion orqali davlat xaridlarini amalga oshirish

49. Auksion orqali davlat xaridlarini amalga oshirish uchun davlat buyurtmachisi maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat xaridlarining reja-jadvaliga muvofiq auksion tugaydigan sanadan kamida besh ish kuni avval e'lonni joylashtiradi.

50. Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa Qonunning 53-moddasida belgilangan ma'lumotlar bo'lishi kerak.

51. Auksion davlat buyurtmachisining e'lonida bayon etilgan talablarni inobatga olgan holda o'tkaziladi.

52. Auksion davlat xaridlarining elektron tizimida boshlang'ich narxni qadam-baqadam pasaytirish yo'li bilan o'tkaziladi. Qadam o'lchovi operator tomonidan vakolatli organ bilan kelishilgan holda belgilanadi, lekin auksionning boshlang'ich narxining 3 foiz miqdoridan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Bunda bir ishtirokchi belgilangan qadam o'lchovi miqdorida boshlang'ich narxni ketma-ket bir necha bor pasaytirish huquqiga ega.

53. Davlat xaridlarining elektron tizimi budjet buyurtmachisining e'lonini u joylashtirilgan vaqtdan va Moliya vazirligining davlat moliyasini boshqarish axborot tizimidan ma'lumotlar almashinuvi orqali mablag'lar mavjudligi haqidagi tasdig'i olingandan so'ng faollashtiradi va ishtirokchilarning takliflarini qabul qilishni boshlaydi.

54. Agar taklif narxi davlat buyurtmachisi tomonidan berilgan boshlang'ich narxdan past va/yoki boshqa ishtirokchining taklif qilgan narxidan past bo'lsa, davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchilarning takliflarini qabul qilishni ta'minlaydi.

Auksionni o'tkazish chog'ida ishtirokchilar auksion boshlangan paytdan e'tiboran va u tamom bo'ladigan paytga qadar butun muddat ichida narx bo'yicha takliflarni cheklanmagan miqdorda berishga haqli.

Auksion uni o'tkazish haqidagi e'londa ko'rsatilgan muddatda (sana va vaqt), biroq oxirgi taklif kelib tushgan vaqtdan so'ng o'n daqiqadan kam bo'lmagan vaqtda tugagan deb hisoblanadi.

Mazkur vaqt ichida yangi taklif berilgan taqdirda, ishtirokchilardan takliflarni qabul qilish muddati oxirgi taklif olingandan so'ng yana o'n daqiqaga uzaytiriladi.

Ishtirokchilarning nomi va ular bilan bog'lanishga doir ma'lumotlar auksion g'olibi aniqlanmaguniga qadar davlat xaridlarining elektron tizimida aks ettirilmaydi.

Agar auksion mobaynida ishtirokchi tomonidan taklif qilingan narx boshlang'ich narxdan 20 va undan ortiq foizga past bo'lsa, ishtirokchi boshlang'ich narx va o'zi tomonidan taklif etilgan narxning farqi miqdoridagi qo'shimcha zakalatni oldindan kiritishi shart. Bunda boshlang'ich narx:

bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravaridan oshmaydigan hollarda qo'shimcha zakalat summasi bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan;

bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravaridan oshgan hollarda qo'shimcha zakalat summasi bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravaridan oshmasligi kerak.

Qo'shimcha zakalat mavjud bo'lmagan taqdirda, ushbu takliflar davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda rad etiladi.

55. Auksion orqali davlat xaridlarini amalga oshirishda tovarlarni yetkazib berish muddati ularning miqdoridan, hajmidan, noyobligidan, ishlab chiqarishga va (yoki) respublika hududiga import qilishga ketadigan vaqtidan va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yetti kundan kam bo'lmasligi kerak. Bunda yetkazib beruvchi tovarlarni shartnomada belgilangan muddatdan oldin yetkazib berishi mumkin.

56. Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, auksion o'tkazilmagan deb hisoblanadi va g'olib aniqlanmaydi. Davlat buyurtmachisi auksionni uch ish kuniga uzaytirishi yoki xaridni Qonun va mazkur Nizom talablariga muvofiq elektron do'kon (belgilangan mezonlar doirasida) yoki eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirishi mumkin.

5-bob. Tanlash

1-§. Tanlash vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish shartlari

57. Tanlash vositasidagi davlat xaridlari Qonunning 7-bobiga va ushbu Nizomga **3-ilovada** keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Tanlash elektron shaklda o'tkaziladi.

58. Tanlash vositasidagi davlat xaridi Qonunning 56-moddasida belgilangan shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

2-§. Tanlashni o'tkazishda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish

59. Tanlashni o'tkazishda xarid komissiyasi Qonunning 20 va 57-moddalarida belgilangan tartibda shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

60. Xarid komissiyasining mas'ul kotibi:

ishtirokchilarning takliflarini tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi;

tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimiga kiritadi.

61. Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga o'z vazifalarini amalga oshirish uchun davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi.

62. Xarid komissiyasining vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish uchun xarid komissiyasining a'zolari va mas'ul kotibining muloqot qilish imkoniyati davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan yopiq chat orqali ta'minlanadi.

63. Davlat xaridlarining elektron tizimidagi shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyasining har bir a'zosi, shu jumladan, uning raisi xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart. Operator xarid komissiyasi a'zolari tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash bo'yicha javobgar bo'ladi.

64. Xarid komissiyasi raisining affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjud bo'lsa, tanlashni o'tkazish jarayoni davlat buyurtmachisi tomonidan yangi xarid komissiyasi raisi tayinlanguniga qadar to'xtatiladi.

65. Xarid komissiyasining har bir a'zosi o'zining shaxsiy kabineti orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Belgilangan muddatlarda xarid komissiyasi a'zosi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishdan bo'yin tovlagan taqdirda, u ovoz berishdan bosh tortgan deb tan olinadi. Xarid komissiyasi raisi yoki uning vazifasini bajaruvchi ovoz berishdan bosh tortishga haqli emas.

3-§. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini ishlab chiqish va tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirish

66. Davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisining mutaxassislari yoki tanlashni tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul shaxs tomonidan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shartnoma va tanlashni o'tkazish haqidagi e'lonning matni ishlab chiqiladi.

67. Tanlash taklifining texnik va narx qismi bo'yicha davlat buyurtmachisining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun taklifning har bir qismini baholash ahamiyatiga qarab nisbiy qiymati belgilanadi.

68. Davlat buyurtmachisi ishtirokchilarning tanlash takliflarini baholash usulini (eng past narx usulini yoki ball usulini) va mezonlarini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun kiritadi. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida tanlash takliflarini baholash uchun qo'llaniladigan

ballarning boshlang'ich qiymatlari belgilanishi mumkin va ulardan o'tmagan ishtirokchi tanlashdan chetlatiladi.

69. Tanlash taklifining texnik qismi uchun miqdoriy yoki miqdoriy bo'lmagan (ekspert) ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda baholash mezonlari belgilanadi.

70. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari namunaviy shakllarini to'ldirishda miqdoriy (o'lchov birligini belgilagan holda) va miqdoriy bo'lmagan (ekspert) mezonlar xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

71. Ball usulidan foydalanganda tanlash taklifining har bir baholash mezoni bo'yicha nisbiy qiymat belgilanishi mumkin. Eng past narx usulidan foydalanganda ishtirokchining tanlash taklifi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelishi yoki mos kelmasligini aniqlovchi mezonlar belgilanishi mumkin.

72. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida majburiy bo'lgan mezonlar belgilanishi mumkin. Bunda tanlash taklifining majburiy etib belgilangan mezonlarga mos kelmasligi ishtirokchini davlat xaridlarining elektron tizimi orqali tanlashning har qanday bosqichida chetlatishga olib keladi.

Bunda majburiy mezonlar belgilanishida Qonunning 34-moddasiga muvofiq ishtirokchilarga nisbatan raqobatni cheklovchi talablar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

73. Davlat buyurtmachisi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini kelishish uchun elektron shaklda xarid komissiyasiga kiritadi.

74. Xarid komissiyasi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining majlisda yoki masofadan turib Qonun talablariga muvofiqligini ko'rib chiqadi va quyidagilarni belgilaydi:

tanlash takliflari qabul qilinadigan muddatlar;

tanlash takliflarini baholash usullari va mezonlari;

tanlash takliflari qismlarining va zarur hollarda texnik qismining har bir baholash mezonlarining nisbiy qiymati;

tanlash taklifini ta'minlash hajmi va shakli.

75. Tanlashni o'tkazish haqida qaror tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari xarid komissiyasi tomonidan kelishilganidan so'ng qabul qilinadi.

76. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan so'ng xarid komissiyasi tomonidan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari qayta kelishilishi kerak.

77. Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini ERI bilan tasdiqlaydi.

78. Tasdiqlangan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shartnoma loyihasi, shuningdek, tanlash o'tkazish haqidagi e'lon tanlash ishtirokchilarining takliflarini qabul qilish muddati tugashidan kamida besh ish kuni oldin davlat buyurtmachisi tomonidan davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

79. Zarur bo'lgan hollarda davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi qarori bilan tanlash takliflarini berish muddatini uzaytirishi yoki tanlash ishtirokchilariga tanlash takliflarining amal qilish muddatini ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

4-§. Tanlashda ishtirok etish uchun taklifini berish tartibi

80. Tanlash o'tkazilganda ishtirokchilar tanlash bo'yicha elektron takliflarni o'zlarining shaxsiy kabinetlari orqali e'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar.

81. Ishtirokchining tanlash taklifining ajralmas qismi bo'lgan elektron hujjatlar operator tomonidan belgilangan namunaviy shakllar asosida taqdim etiladi. Davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilgan tanlash taklifi ishtirokchi tomonidan tasdiqlanadi.

82. Tanlash taklifi bilan birgalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin.

Bunda ishtirokchilarning tanlash takliflari davlat xaridlarining elektron tizimidagi namunaviy shakllarga muvofiq hujjatlarni biriktirish orqali taqdim etiladi. Ishtirokchining tanlash taklifidagi ma'lumotlar biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

83. Tanlash takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar ular ishtirokchilar, shuningdek, xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. Mazkur talabning bajarilishiga operator javobgar hisoblanadi.

84. Tanlash ishtirokchisi bitta lotga faqat bitta tanlash taklifini berishga haqli.

85. Tanlash ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot (ma'lumot) va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'riligi uchun javob beradi.

86. Tanlash ishtirokchisi taqdim etilgan tanlash takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan tanlash taklifini chaqirib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli.

87. Joylashtirilgan e'londa ko'rsatilgan muddat va vaqtda davlat xaridlarining elektron tizimi tanlash takliflarini qabul qilishni to'xtatadi.

Tanlash ishtirokchisi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan davlat buyurtmachisiga ochiq elektron chat orqali so'rov yuborishga haqli.

Davlat buyurtmachisi so'rov tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

Davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash takliflarining ta'minlanishi zarurligi belgilagan taqdirda, ishtirokchi tanlash takliflari yuborilguniga qadar ta'minotning maqbulligini tasdiqlash to'g'risida ochiq elektron chat orqali so'rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so'rovga bir ish kuni ichida javob beradi.

5-§. Tanlash natijalarini sarhisob qilish

88. Tanlash xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlash takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

89. Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan fayllar uning tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlariga mos bo'lishi hamda davlat xaridlarining elektron tizimidagi to'ldirilishi majburiy bo'lgan elektron maydonlar to'ldirilishi kerak.

90. Davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchi taklif etgan narxni boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilishi majburiy bo'lgan maydonlar to'ldirilmagan bo'lsa yoki biriktirilishi majburiy bo'lgan fayllar mavjud bo'lmasa, davlat xaridlarining elektron tizimi rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi. Biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

91. Agar tanlash taklifi Qonunning va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo'lsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tanlash taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo'yicha xarid komissiyasi mas'ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Ishtirokchining tanlash taklifi talablarga mos kelmaganligi to'g'risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

Tanlash g'olibini aniqlash uchun tanlash takliflarini baholash tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi.

92. Tanlash takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasining mas'ul kotibi tanlash ishtirokchilaridan ularning tanlash takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o'tkaziladi.

93. Tanlash taklifi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari bilan belgilangan muddat mobaynida kuchda qoladi.

94. Tanlash taklifining miqdoriy ko'rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

95. Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lmagan taklifning texnik qismining mezonlari bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

96. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda:

tanlash taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda);

tanlash takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra tanlashda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.

Tanlash takliflarini ball usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, eng past narx taklif etgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Tanlash takliflarini eng past narx usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, texnik qismi bo'yicha eng maqbul taklifni bergan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Zaxiradagi g'olibni aniqlash mazkur bandda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

97. Tanlash takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalari davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllangan dastlabki elektron bayonnomada qayd etiladi va tanlash o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi a'zolari tomonidan ERIdan foydalangan holda imzolanadi.

Bunda dastlabki elektron bayonnomada quyidagi axborot bo'lishi kerak:

tanlash takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt;

xarid komissiyasi a'zolarining va tanlash ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi;

tanlash takliflari ko'rib chiqilgan tanlash ishtirokchilari;

xar bir tanlash taklifini baholash natijalarining yoyilmasi;

tanlash takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan va asoslangan holda rad etilgan tanlash ishtirokchilari;

tanlash g'olibi to'g'risida qabul qilingan qaror haqida ma'lumot;

tanlash g'olibining nomi (yuridik shaxslar uchun), F.I.O. (jismoniy shaxslar uchun), joylashgan joyi (pochta manzili).

98. Dastlabki elektron bayonnoma u rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimida muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtiriladi.

99. Tanlashning istalgan ishtirokchisi dastlabki elektron bayonnoma e'lon qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisiga tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha davlat xaridlarining elektron tizimi orqali e'tirozlar yuborishga haqli.

100. Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar tushmagan bo'lsa, bu to'g'risida xarid komissiyasining tegishli majlisi elektron bayonnomasi rasmiylashtiriladi va davlat buyurtmachisi bilan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

101. Tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha tanlash ishtirokchilaridan e'tirozlar tushganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni ikki ish kuni ichida ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

102. Davlat buyurtmachisi tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to‘g‘risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi elektron bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

6-§. Tanlash natijalari bo‘yicha shartnoma tuzish

103. Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida va o‘zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida g‘olib aniqlangan vaqtdan boshlab o‘n ish kunidan kechiktirmasdan tuziladi.

104. Tanlashni o‘tkazish natijalariga ko‘ra shartnoma elektron shaklda tuziladi hamda shartnomalarning yagona reyestriga kiritiladi.

105. Buyurtmachilar tomonidan xodimlarni fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma asosida jalb etishni nazarda tutuvchi xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o‘tkazish majburiy hisoblanmaydi.

Bunda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish, tanlash ishtirokchilari tomonidan takliflarni berish, tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash, g‘olib va zaxira g‘olibni aniqlash, tanlash natijalarini rasmiylashtirish Qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6-bob. Tender

1-§. Tenderni o‘tkazish shartlari

106. Tender vositasidagi davlat xaridlari Qonunning 8-bobiga, ushbu Nizomga **4-ilovada** keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Tender elektron shaklda o‘tkaziladi.

107. Tender vositasidagi davlat xaridi Qonunning 64-moddasida belgilangan shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

2-§. Tenderni o‘tkazishda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish

108. Tenderni o‘tkazishda xarid komissiyasi Qonunning 20 va 65-moddalarida belgilangan tartibda shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

109. Xarid komissiyasining mas’ul kotibi:

ishtirokchilarning takliflarini tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo‘yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko‘rib chiqish uchun taqdim qiladi;

tasdiqlangan mezonlar bo‘yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimida joylashtiradi.

110. Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasining har bir a’zosiga va mas’ul kotibiga o‘z vazifalarini amalga oshirish uchun davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi.

111. Xarid komissiyasining vakolatiga kiritilgan masalalarni ko‘rib chiqish uchun xarid komissiyasining a’zolari va mas’ul kotibining muloqot qilish imkoniyati davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan yopiq chat orqali ta’minlanadi.

112. Davlat xaridlarining elektron tizimidagi shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyasining har bir a’zosi, shu jumladan, uning raisi xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlarni kiritishi shart. Operator xarid komissiyasi a’zolari tomonidan kiritilgan ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash bo‘yicha javob beradi.

113. Xarid komissiyasi raisining affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjud bo'lsa, tenderni o'tkazish jarayoni davlat buyurtmachisi tomonidan xarid komissiyasining vaqtinchalik yangi raisi tayinlanguniga qadar to'xtatiladi.

114. Xarid komissiyasining har bir a'zosi o'zining shaxsiy kabineti orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Belgilangan muddatlarda xarid komissiya a'zosi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishdan bosh tortgan taqdirda, uning ovozi betaraf sifatida qabul qilinadi. Xarid komissiya raisi yoki uning vazifasini bajaruvchi ovoz berishdan bosh tortishga haqli emas.

3-§. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini ishlab chiqish va tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirish

115. Davlat buyurtmachisi tomonidan tender o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisining mutaxassislari yoki tenderni tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul shaxs tomonidan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shartnoma va tender o'tkazish haqidagi e'lonning matni ishlab chiqiladi.

116. Tender taklifining texnik va narx qismi bo'yicha davlat buyurtmachisining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun taklifning har bir qismini baholash ahamiyatiga qarab nisbiy qiymati belgilanadi.

117. Davlat buyurtmachisi ishtirokchilarning tender takliflarini baholash usulini (eng past narx usulini yoki ball usulini) va mezonlarini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun kiritadi. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida tender takliflarini baholash uchun qo'llaniladigan ballarning boshlang'ich qiymatlari belgilanishi mumkin va ulardan o'tmagan ishtirokchi tenderdan chetlatiladi.

118. Tender taklifining texnik qismi uchun miqdoriy yoki miqdoriy bo'lmagan (ekspert) ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda baholash mezonlari belgilanadi.

119. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining namunaviy shakllarini to'ldirishda miqdoriy (o'lchov birligini belgilagan holda) va miqdoriy bo'lmagan (ekspert) mezonlar xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadi.

120. Ball usulidan foydalanganda tender taklifining har bir baholash mezoni bo'yicha nisbiy qiymat belgilanishi mumkin. Eng past narx usulidan foydalanganda ishtirokchining taklifi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelishi yoki mos kelmasligini aniqlovchi mezonlar belgilanishi mumkin.

121. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida majburiy bo'lgan mezonlar belgilanishi mumkin. Bunda tender taklifining majburiyligi belgilangan mezonlarga mos kelmasligi ishtirokchining davlat xaridlarining elektron tizimi orqali tenderning har qanday bosqichida chetlatilishiga olib keladi.

Bunda majburiy mezonlar belgilanishida Qonunning 34-moddasiga muvofiq ishtirokchilarga nisbatan raqobatni cheklovchi talablar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

122. Davlat buyurtmachisi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini kelishish uchun elektron shaklda xarid komissiyasiga kiritadi.

123. Xarid komissiyasi o'zining majlisida yoki masofadan turib tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari loyihasining Qonun talablariga muvofiqligi bo'yicha ko'rib chiqadi va quyidagilarni belgilaydi:

tender takliflari qabul qilinadigan muddatlar;

tender takliflarini baholash usullari va mezonlari;

tender taklifi qismlarining va zarur hollarda texnik qismining har bir baholash mezoni bo'yicha nisbiy qiymati;

tender taklifini ta'minlash hajmi va shakli.

124. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari loyihasi unda belgilangan talablar bilan birga muhokamaga qo'yiladi.

125. Xarid komissiyasi tomonidan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari loyihasi ma'qullangan holda tender o'tkazish haqida qaror qabul qilinadi.

126. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari ma'qullanmagan hollarda ular qayta ishlash uchun qaytarib yuborilishi yoki xarid komissiyasi majlisida qayta ishlanishi mumkin.

127. Ma'qullangan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini davlat buyurtmachisi ERI bilan tasdiqlaydi.

128. Tasdiqlangan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shuningdek, tender o'tkazish to'g'risidagi e'lon tender ishtirokchilaridan tender takliflarini qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o'n ikki ish kuni oldin va ko'pi bilan o'ttiz ish kuni oldin davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

129. Zarur bo'lgan hollarda davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi qarori bilan tender takliflarini berish muddatini uzaytirishi yoki tender ishtirokchilariga tender takliflarining amal qilish muddatini ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

130. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida davlat buyurtmachisi har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi (lot) sifatida ko'rib chiqilishini e'lon qilishi mumkin. Bu holatda davlat buyurtmachisi turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tenderning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir lot uchun faqat bitta g'olib aniqlanishi mumkin.

4-§. Tenderda ishtirok etish uchun taklif berish tartibi

131. Tender ishtirokchilari tender bo'yicha elektron takliflarni o'zlarining shaxsiy kabinetlari orqali e'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar.

132. Ishtirokchining tender taklifini tashkil etuvchi elektron hujjatlar operator tomonidan belgilangan namunaviy shakllar asosida taqdim etiladi. Davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilgan tender taklifi ishtirokchi tomonidan tasdiqlanadi.

133. Tender taklifi bilan birgalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin.

Bunda ishtirokchilarning tender takliflari davlat xaridlarining elektron tizimida namunaviy shakllarga muvofiq hujjatlarni biriktirish orqali taqdim etiladi. Ishtirokchining tender takliflarida ko'rsatilgan ma'lumotlar biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

134. Tender takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar ular tender ishtirokchilari, shuningdek, xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. Mazkur talabning bajarilishiga operator javobgar hisoblanadi.

135. Tender ishtirokchisi bitta lotga faqat bitta tender taklifini berishga haqli.

136. Tender ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot (ma'lumot) va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'riligi uchun javob beradi.

137. Tender ishtirokchisi tender takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan tender taklifini qaytarib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli.

138. Joylashtirilgan e'londa ko'rsatilgan muddat va vaqtda davlat xaridlarining elektron tizimi tender takliflarini qabul qilishni to'xtatadi.

139. Tender takliflari tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan muddatda o'z kuchida qoladi.

140. Tender ishtirokchisi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan davlat buyurtmachisiga ochiq elektron chat orqali so'rov yuborishga haqli.

141. Davlat buyurtmachisi so‘rov tushgan sanadan e’tiboran ikki ish kuni ichida ushbu so‘rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o‘zgartirmasligi kerak.

142. Davlat buyurtmachisi tomonidan tender takliflarining ta’minlanishi zarurligi belgilagan taqdirda, ishtirokchi tender takliflari yuborilguniga qadar ta’minotning maqbulligini tasdiqlash to‘g‘risida ochiq elektron chat orqali so‘rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so‘rovga bir ish kuni ichida javob beradi.

5-§. Tender natijalarini sarhisob qilish

143. Tender xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o‘tkazilganda davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tender takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni ko‘rish imkoniyatini beradi.

144. Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan hujjatlar uning tender taklifida ko‘rsatilgan ma’lumotlariga mos bo‘lishi hamda davlat xaridlarining elektron tizimidagi to‘ldirilishi majburiy bo‘lgan elektron maydonlar to‘ldirilgan bo‘lishi kerak.

145. Davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchi taklif etgan narxning boshlang‘ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to‘ldirilganligini hamda biriktirilgan hujjatlarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang‘ich narxdan yuqori bo‘lsa, shuningdek, to‘ldirilishi majburiy bo‘lgan to‘ldirilmagan maydonlar mavjud bo‘lsa yoki biriktirilishi majburiy bo‘lgan hujjatlar mavjud bo‘lmasa, davlat xaridlarining elektron tizimi aniq sababni ko‘rsatgan holda ishtirokchining tender taklifini rad etadi. Biriktirilgan hujjatlardagi ma’lumotlarning ishtirokchining tender taklifida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas’ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

146. Tender takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

tender taklifining tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish;

ishtirokchining malaka talablarga (tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lsa) muvofiqligini baholash;

tender taklifining texnik qismini baholash;

tender taklifining narx qismini baholash.

Bunda davlat xaridlarining elektron tizimi tender taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar tender taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so‘ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta’minlaydi.

147. Tender taklifi tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi bo‘yicha xarid komissiyasi mas’ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

148. Ishtirokchining tender taklifi talablarga mos kelmaganligi to‘g‘risidagi qaror ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

149. Tender g‘olibini aniqlash uchun tender takliflarini baholash tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi.

150. Tender takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasi mas’ul kotibi tender ishtirokchilaridan ularning tender takliflari yuzasidan tushuntirishlar so‘rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o‘tkaziladi.

151. Tender taklifining miqdoriy ko‘rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

152. Miqdor ko‘rsatkichlariga ega bo‘lmagan taklifning texnik qismining mezonlari bo‘yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

153. Miqdor ko‘rsatkichlariga asoslangan mezonlarni baholashda:

tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatkichlarning eng kam va eng ko'p qiymatlari belgilanishi mumkin;

miqdor ko'rsatkichlari eng kam va eng ko'p hisobga olinadigan qiymatlari oralig'ida bo'lgan ishtirokchilar uchun ball koeffitsiyenti uning miqdor ko'rsatkichining eng kam va eng ko'p hisobga olinadigan qiymatlarining farqiga bo'lgan nisbatini aniqlash orqali hisoblanadi;

agar ma'lum bir mezon bo'yicha ishtirokchining miqdor ko'rsatkichi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq eng kam hisobga olinadigan qiymatdan kam bo'lsa. ishtirokchiga eng kam ball qo'yiladi;

agar ma'lum bir mezon bo'yicha ishtirokchining miqdor ko'rsatkichi eng ko'p hisobga olinadigan qiymatdan yuqori bo'lsa, uning ko'rsatkichi eng ko'p hisobga olinadigan qiymatdan qay darajada yuqoriligidan qat'i nazar unga ushbu mezon bo'yicha eng yuqori ball beriladi;

miqdoriy yoki miqdoriy bo'lmagan (ekspert) mezonni baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan ballni ushbu mezonning hisobga olinadigan qiymatiga ko'paytirish orqali avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

154. Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xarid komissiyasi ishtirokchilarga shartnomani bajarish uchun zarur professional va texnik malaka ma'lumotlariga, kasbiy va texnik kompetensiyaga, moliyaviy resurslarga, jihozlarga va boshqa moddiy imkoniyatlarga, boshqaruv malakasiga, ishonchlilikka, tajribaga va obro'ga, shuningdek, inson resurslariga ega ekanligiga ishonch hosil qilish uchun qo'shimcha mezon va talablarni belgilash huquqiga ega.

Bunda ishtirokchilarni kamsitishga, savdolarning bitta yoki bir nechta ishtirokchisiga savdolarda qatnashish uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratib berishga, raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan mezonlarni, talablarni va tartib-taomillarni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

155. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida tender ishtirokchisining malaka talablariga mos kelishini tasdiqlovchi hujjatlarning davlat xaridlarining elektron tizimiga biriktirilishi nazarda tutilishi mumkin. Davlat buyurtmachisi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilmagan mezonlar bo'yicha ishtirokchining malakasini baholashga yoki tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilmagan hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga haqli emas.

156. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda:

tender taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda);

tender takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra tenderda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.

Tender takliflarini ball usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, eng past narx taklif etgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Tender takliflarini eng past narx usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, texnik qismi bo'yicha eng maqbul taklifni bergan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Zaxiradagi g'olibni aniqlash mazkur bandda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

157. Xarid komissiyasi a'zolari davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllangan yig'ilishning elektron bayonnomalarini ERIdan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnomadan ko'chirma davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda e'lon qilinadi.

158. Tender takliflarini ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida:

tender takliflari ko'rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to'g'risidagi;

hozir bo'lgan xarid komissiyasi a'zolarining va tender ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqidagi;

tender takliflari ko'rib chiqilgan tender ishtirokchilari to'g'risidagi;

xar bir tender takliflarini baholash natijalarining yoyilmasi haqidagi;

tender takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko'rsatilgan va asoslangan holda rad etilgan tender ishtirokchilari haqidagi;

tender g'olibi (zaxira g'olibi) to'g'risida qabul qilingan qaror haqidagi;

tender g'olibining nomi (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxs uchun), joylashgan joyi (pochta manzili) haqidagi axborot bo'lishi kerak.

159. Davlat buyurtmachisi g'olib bo'lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda tenderni bekor qilish huquqiga ega. Tender bekor qilingan taqdirda davlat buyurtmachisi davlat xaridlarining elektron tizimida mazkur qarorning asoslangan sabablarini e'lon qiladi.

160. Davlat buyurtmachisi tender bekor qilinganligi uchun javobgar bo'lmaydi, bundan tender davlat buyurtmachisining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) oqibatida bekor qilingan hollar mustasno.

6-§. Tender natijalari bo'yicha shartnoma tuzish

161. Tender natijalari bo'yicha shartnoma tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan boshlab o'n ish kunidan kechiktirmasdan tuziladi.

162. Davlat buyurtmachisi tender shartlariga muvofiq qabul qilgan ta'minot summasi yoki ta'minotiga oid boshqa hujjatlar quyidagi holatlardan biri ro'y bergan taqdirda, ishtirokchiga yoki ijrochiga darhol qaytarilishini ta'minlaydi:

taklifni ta'minotiga oid hujjatning amal qilish muddati tugagan bo'lsa;

shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishi ta'minlanishi, agar bunday ta'minlash davlat xaridi shartlarida talab etilsa;

davlat xaridlari bekor qilinsa;

takliflarni yuborishning oxirgi muddati tugaguniga qadar taklifning chaqirib olinishi, agar davlat xaridi shartlarida bunday qaytarib olishga yo'l qo'yilmasligi aytib o'tilmagan bo'lsa.

163. Tender ishtirokchilari tender shartlari va tenderni o'tkazish tartib-taomillari buzilgan holatlarda tender natijalaridan belgilangan tartibda shikoyat qilishlari mumkin.

164. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

165. Xarid komissiyasining o'z vakolati doirasida qabul qiladigan qarorlari Qonunning 20-moddasiga asosan barcha ishtirokchilar uchun majburiy hisoblanadi.

166. Tender natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma elektron hujjat shaklida tuziladi va operator tomonidan Shartnomalarning yagona reyestriga kiritiladi.

167. Buyurtmachilar tomonidan xodimlarni fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma asosida jalb etishni nazarda tutuvchi xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o'tkazish majburiy hisoblanmaydi.

Bunda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish, tender ishtirokchilari tomonidan takliflarni berish, tender ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash, g'olib va zaxira g'olibni aniqlash, tender natijalarini rasmiylashtirish Qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

7-bob. Hadli kelishuv

1-§. Hadli kelishuv tartib-taomili orqali davlat xaridlarini amalga oshirish shartlari

168. Hadli kelishuv vositasidagi davlat xaridlari ushbu Nizomga 5-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Budjet buyurtmachisi hadli kelishuv tartib-taomili orqali davlat xaridlarini amalga oshira olmaydi.

169. Hadli kelishuv ikki bosqichli xarid qilish tartib-taomili hisoblanib, uning birinchi bosqichi hadli kelishuvning tomoni sifatida kamida uchta ishtirokchini aniqlash, ikkinchi bosqichi esa hadli kelishuvning tomoni hisoblangan ishtirokchilardan biri bilan shartnoma tuzish uchun o'tkaziladi.

170. Hadli kelishuv vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o'z ichiga oladi;

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir hadli kelishuv bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi;

muayyan (ko'pi bilan uch yilgacha) muddat davomida korporativ buyurtmachilar faoliyatida joriy ishlab chiqarish jarayonlarida foydalaniladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish uzluksizligini ta'minlash zarurati yuzaga kelishi.

171. Xarid komissiyasi hadli kelishuvning ikkinchi bosqichida ishtirokchilarga nisbatan takliflarning garov, kafolat, zakalat tarzida ta'minlanishi zarurligi to'g'risidagi talabni belgilashi mumkin.

2-§. Hadli kelishuvni amalga oshirish va natijalarini sarhisob qilish tartibi

172. Hadli kelishuvning birinchi bosqichi natijasiga ko'ra ushbu bosqichdan o'tgan kamida uch nafar ishtirokchi bilan hadli kelishuv imzolanadi.

173. Hadli kelishuvning amal qilish muddati uch yildan ko'p bo'lmasligi kerak.

174. Hadli kelishuv to'g'risidagi axborot u tuzilgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi shart.

175. Hadli kelishuv orqali davlat xaridlarini amalga oshirishning birinchi bosqichida xarid komissiyasining faoliyatini, xarid qilish hujjatlarini ishlab chiqish va xarid qilish tartib-taomilini o'tkazish to'g'risidagi e'lonni joylashtirishni hamda xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish uchun taklif berishni tartibga solishda mazkur Nizomning 6-bobiga muvofiq tender o'tkazish tartib-taomillari qo'llaniladi.

Bunda birinchi bosqichda:

xarid hujjatlariga taklifning faqat texnik qismi taqdim etilishi, shuningdek, hadli kelishuv tuziladigan muddat davomida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) umumiy hajmi va boshlang'ich narxi doirasida yetkazib berishi lozimligi yuzasidan talablar kiritiladi;

ishtirokchilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narx takliflari taqdim etilmaydi.

176. Hadli kelishuv orqali davlat xaridlarini amalga oshirishda korporativ buyurtmachi xarid qilish hujjatlarida va xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa kamida uch nafar ishtirokchi bilan hadli kelishuv tuzilishini nazarda tutishi hamda hadli kelishuv orqali davlat xaridlarini amalga oshirishning asoslovchi sabab va sharoitlarini bayon etishi shart.

Bunda xarid qilish hujjatlariga uning ajralmas qismi bo'lgan hadli kelishuv va shartnoma loyihalari ilova qilinadi.

177. Hadli kelishuv tuzish uchun takliflar berish muddati tugagan vaqtda ishtirokchilardan kamida uchta taklif olingan bo'lsa, ishtirokchilarning takliflari xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ishtirokchi bunday takliflarni berish muddati tugaguniga qadar berilgan taklifni qaytarib olishga yoki unga o'zgartishlar kiritishga haqli.

178. Hadli kelishuvning xarid qilish tartib-taomilida uchta ishtirokchidan kam ishtirokchi ishtirok etsa, yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, shuningdek, kamida uchta ishtirokchining

takliflari xarid qilish hujjatlari talablariga mos kelmasa, xarid qilish tartib-taomili o'tkazilmagan deb topiladi.

Bunday holda davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomilini ayni o'sha shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o'sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart.

Tovarga (ishga, xizmatga) doir baholash shartlari, mezonlarini va talablarni o'zgartirish yoki hadli kelishuv tuzish bo'yicha talabni chiqarib tashlab tender o'tkazish zarur bo'lganda, xarid komissiyasi asoslarni ko'rsatgan holda tegishli qarorni qabul qiladi.

179. Hadli kelishuv tartib-taomilining birinchi bosqichni baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan oshishi mumkin emas.

180. Hadli kelishuv tartib-taomilining ikkinchi bosqichida korporativ buyurtmachi shartnomani tuzish uchun birinchi bosqichdan o'tib, hadli kelishuv tuzilgan barcha ishtirokchilarga ishtirok etish uchun davlat xaridlarining elektron tizimi orqali narx so'rovini yuboradi.

Bunda hadli kelishuv tuzilgan ishtirokchilar narx so'rovida ishtirok etish to'g'risidagi taklif davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan yuborilgan paytdan e'tiboran kamida besh ish kuni ichida o'z takliflarini berishga haqli.

181. Korporativ buyurtmachi tomonidan elektron tizim orqali narx so'rovi yuborilishida birinchi bosqich natijasiga ko'ra tuzilgan hadli kelishuvga havola, tovarning (ishning, xizmatning) ayni vaqtda talab etiladigan hajmi, takliflarni yuborishning oxirgi muddati belgilanishi lozim.

182. Takliflarni yuborishning oxirgi muddati yakunlanganidan so'ng davlat xaridlari elektron tizimi hadli kelishuv tuzilgan ishtirokchilarning narx takliflarini baholaydi va g'olibni aniqlaydi.

Bunda hadli kelishuv tuzilgan ishtirokchilarning narx takliflari birinchi bosqichda korporativ buyurtmachi tomonidan belgilangan boshlang'ich narx doirasida bo'lishi lozim.

183. Har bir o'tkaziladigan narx so'rovi va yakuniy baholash natijasiga ko'ra faqat bitta g'olib aniqlanadi va xarid qilish hujjatlarida va g'olib deb topilgan ishtirokchining taklifida ko'rsatilgan shartlar asosida o'n ish kunidan kechiktirmasdan shartnoma tuziladi.

184. Hadli kelishuv asosida tuzilgan shartnoma u tuzilgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi shart.

8-bob. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari

1-§. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi

185. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlari Qonunning 71-moddasida belgilangan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

186. Davlat buyurtmachilari to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirishi shart, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

187. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo'lsa, ushbu shartnomalar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

188. Davlat buyurtmachisi ushbu paragrafda nazarda tutilgan davlat xaridlarini amalga oshirish chog'ida xarid qilish tartib-taomillarining boshqa raqobatli turlaridan ham Qonun va ushbu Nizom talablariga muvofiq foydalanishi mumkin.

189. Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridini to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida amalga oshirishga ruxsat berilsa, tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming (budjet

buyurtmachilari uchun olti ming) baravari miqdorigacha bo'lgan shartnoma va shartnomaga oid qo'shimcha kelishuvlar Kompleks ekspertiza qilish markazida kompleks ekspertizadan o'tkazilmaydi.

2-§. Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi

190. Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi Qonunning 72-moddasida belgilangan hollarda amalga oshiriladi.

3-§. Yagona yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzish

191. Yagona yetkazib beruvchilardan xaridni amalga oshirish uchun davlat buyurtmachilari yagona yetkazib beruvchilar reyestridan (keyingi o'rinlarda — Reyestr) foydalanadi.

192. Yagona yetkazib beruvchidan tovar (ish, xizmat) olish zarur bo'lgan taqdirda, yetkazib beruvchi hamda davlat buyurtmachisi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuziladi va bu shartnoma to'g'risidagi axborot u tuzilgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi lozim.

4-§. Yagona yetkazib beruvchilar reyestrini yuritish

193. Yagona yetkazib beruvchilar reyestri vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan axborot resursidir.

194. Yagona yetkazib beruvchilar reyestri yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati va yagona yetkazib beruvchilar ro'yxatidan iboratdir.

195. Reyestrda kontragent mavjud bo'lmasa, davlat buyurtmachisi to'g'ridan-to'g'ri shartnomani tuzishga haqli emas.

196. Reyestrdan hamma erkin foydalanishi mumkin.

197. Vakolatli organ tahlil o'tkazish va tegishli ma'lumotlarni yig'ish orqali:

bozorda muqobillari bo'lmagan texnik jihatdan murakkab va noyob tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi (yetkazib beruvchi) xo'jalik yurituvchi subyektlarni;

tegishli bozorda muqobillari bo'lmagan tovarlar (ishlarni, xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchi tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestriga kiritilgan monopolist-korxonalarni;

tarixiy, badiiy yoki boshqa madaniy ahamiyatga ega bo'lgan madaniy qimmatliklarning egalarini, shuningdek, ushbu qimmatliklarni davlatning muzey, axborot-kutubxona, arxiv fondlarini, kino fondlarini, fotosuratlar fondlarini va shunga o'xshash fondlarni to'ldirish uchun zarurligini aniqlaydi.

198. Mazkur Nizomning 197-bandida ko'rsatib o'tilgan shaxslar Reyestrga yagona yetkazib beruvchi sifatida kiritish haqidagi ariza bilan vakolatli organga murojaat etishlari mumkin.

199. Reyestrga yagona yetkazib beruvchi sifatida kiritish haqidagi arizada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

xo'jalik yurituvchi subyekt haqida — yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatiga olinganligi haqidagi guvohnomaning sanasi va ro'yxatga olish raqami, jismoniy shaxs haqida — shaxsni tasdiqlovchi hujjatdagi tegishli ma'lumotlar;

nomi, texnik xususiyatlari, narxi ko'rsatilgan ishlab chiqarilayotgan (yetkazib berilayotgan) bozorda muqobillari bo'lmagan texnik jihatdan murakkab va noyob tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqida ma'lumot;

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda xo'jalik yurituvchi subyektning Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestrida mavjudligi haqidagi ma'lumotlar;

madaniy qimmatliklarning tarixiy, badiiy yoki boshqa madaniy ahamiyati haqidagi ma'lumotlar;

qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda mavjud bo'lgan litsenziya va ruxsat beruvchi hujjatlar haqidagi ma'lumotlar;

boshqa ma'lumotlar.

200. Vakolatli organ quyidagi asoslar bo'yicha Reyestrga kiritish haqidagi arizani rad etishi mumkin:

mazkur Nizomning 199-bandida nazarda tutilgan hujjatlarni (ma'lumotlarni, axborotlarni) to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etish;

taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri va buzilgan ma'lumotlar aniqlanganligi;

hujjatlar ariza beruvchining nomidan harakat qilish vakolatiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan taqdim etilishi.

201. Vakolatli organ zarur hollarda bozorda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) muqobili mavjudligini aniqlash uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarga:

bozorda muqobillari bo'lmagan texnik jihatdan murakkab va noyob tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi (yetkazib beruvchi) xo'jalik yurituvchi subyektlar haqidagi ma'lumotlarni;

tegishli bozorda muqobillari bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchi tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestriga kiritilgan monopolist-korxonalar haqidagi ma'lumotlarni;

madaniy qimmatliklarning tarixiy, badiiy yoki boshqa madaniy ahamiyatga egaligini, shuningdek, ushbu qimmatliklarni davlatning muzey, axborot-kutubxona, arxiv fondlarini, kino fondlarini, fotosuratlar fondlarini va shunga o'xshash fondlarni to'ldirish uchun zarurligini aniqlash uchun madaniy qimmatliklarning egalari haqidagi ma'lumotlarni yuboradi.

202. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar vakolatli organdan ma'lumotlarni olganlaridan so'ng besh ish kuni mobaynida o'zlarining axborot bazalaridagi va/yoki ochiq manbalardagi ma'lumotlardan foydalangan holda taqdim etilgan tovarning (ishni, xizmatning) bozorda muqobili mavjud emasligi haqidagi axborotni taqdim etadi.

203. Vakolatli organ davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etilgan axborot asosida Reyestrga kiritish haqidagi arizani qanoatlantiradi yoki qanoatlantirishni rad etadi.

204. Ariza qanoatlantirilgan taqdirda, vakolatli organ xo'jalik yurituvchi subyektni yoki madaniy qimmatliklarning egasini yagona yetkazib beruvchi sifatida Reyestrga kiritadi.

205. Reyestrga o'zgartirish kiritish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

tabiiy monopoliya subyektining Tabiiy monopoliya subyektlarining davlat reyestridan chiqarilishi;

xo'jalik yurituvchi subyekt Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning reyestridan chiqarilishi;

vakolatli organning xo'jalik yurituvchi subyektni Reyestrdan chiqarish haqidagi xabarnomasi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan vakolat doirasida faqat shu organlar yoki ularning tizimidagi tashkilotlar tomonidan ishlar bajarilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishi to'xtatilishi;

sudning qonuniy kuchga kirgan xo'jalik yurituvchi subyektni bankrot deb topish haqidagi hal qiluv qarori;

qonunchilikka muvofiq boshqa holatlar.

9-bob. Davlat buyurtmachilari bilan tuzilgan Shartnomalarning yagona reyestri

206. Shartnomalarning yagona reyestri vakolatli organ tomonidan davlat xaridlarining elektron tizimidan foydalangan holda yuritiladi.

207. Shartnomalarning yagona reyestri elektron do'kon, auksion, tanlash, tender, hadli kelishuv natijalari va to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar, shu jumladan, yagona yetkazib beruvchidan amalga oshirilgan xaridlar yakunlari, shuningdek, qonunchilikka muvofiq tuzilgan boshqa davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha shakllantiriladi.

208. Elektron do'kon, auksion, tanlash, tender va hadli kelishuv orqali tuzilgan shartnomalar davlat xaridlarining elektron tizimida ro'yxatga olinganidan so'ng avtomatik rejimda Shartnomalarning yagona reyestriga kiritiladi.

209. To'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga kiritilgandan so'ng avtomatik rejimda axborot shakllantiriladi va Shartnomalarning yagona reyestriga kiritiladi.

210. Shartnomalarning yagona reyestriga Qonunning 47-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'lumotlar kiritiladi.

211. Shartnomalarning yagona reyestridagi axborot tanishib chiqish uchun bepul va ochiq bo'lishi kerak.

212. Maxsus axborot portali va DMBAT o'rtasidagi ma'lumotlar bazasi elektron hamkorligi orqali davlat buyurtmachilari bilan tuzilgan Shartnomalarning yagona reyestri bo'yicha onlayn ma'lumot almashinuvi amalga oshiriladi.

213. Qaysi shartnomalar to'g'risidagi axborot Shartnomalarning yagona reyestriga kiritilmagan bo'lsa, o'sha shartnomalar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

214. Davlat xaridlarini rasmiylashtirish, tuzilgan shartnomalar bo'yicha hisob-kitob qilish, shartnomaviy majburiyatlar bajarilishini monitoring qilish, shikoyatlarni, nizo va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish hamda xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazorati qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

215. Xarid qilish tartib-taomili natijasi bo'yicha tuzilgan shartnomaning quyidagi muhim shartlarini:

tovarni (ishni, xizmatni) o'zgartirishga;

tovarning (ishning, xizmatning) sifatini va assortimentini o'zgartirishga;

tovarning miqdorini va bahosini oshirishga;

yetkazib berish muddatini uzaytirishga (bundan fors-major holatlar mustasno);

amalga oshirilishi lozim bo'lgan qo'shimcha ishlar va xizmatlar qiymatini shartnoma bo'yicha uning umumiy boshlang'ich summasining 10 foizidan ko'p bo'lgan summaga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalarning muhim shartlarini o'zgartirish bo'yicha ushbu shartnoma shartlariga muvofiq qo'shimcha kelishuv tuzilishi mumkin.

216. Davlat buyurtmachisi va davlat xaridlarining elektron tizimi operatori tomonidan xarid qilish tartib-taomiliga oid barcha hujjatlar belgilangan muddatlarda saqlanishi lozim.

217. Davlat buyurtmachilari qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, shartnomalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilishi va shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar lozim darajada bajarilishi uchun, shuningdek, maxsus axborot portaliga joylashtirilgan

ma'lumotlarning, vakolatli davlat organlariga taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligiga va hujjatlarning qog'oz va elektron shaklining o'zaro muvofiqligiga javob beradi.

Operatorlar o'z majburiyatlarining lozim darajada bajarilishi, shu jumladan, davlat buyurmachilari va ishtirokchilar oldidagi to'lov majburiyatlarni o'z vaqtida bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi.

218. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

1-ILOVA

Elektron do'kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Ishtirokchi	Elektron do'konga o'z ofertasini o'n besh ish kuniga joylashtiradi.	Ixtiyoriy ravishda
2-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Elektron do'konda ishtirokchilarning ofertalarini o'rganish yo'li bilan o'zi uchun zarur bo'lgan tovarni (ishni, xizmatni) tanlaydi va narx so'rovi mexanizmidan foydalanadi.	Ixtiyoriy
3-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchiga, shuningdek, elektron do'konda o'xshash tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) taklif etayotgan barcha ishtirokchilarga narxlar so'rovi mexanizmini amalga oshirgan holda xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish to'g'risida takliflarni yuboradi.	Avtomatik ravishda
4-bosqich	Takliflarni olgan ishtirokchi	Narxlar so'rovida ishtirok etish to'g'risida taklif tushgandan so'ng o'z takliflarini berishi mumkin.	Qirq sakkiz soat ichida
5-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Ishtirokchilar tomonidan berilgan narx bo'yicha takliflarni taqqoslashni amalga oshiradi. 2. Davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan ishtirokchining ofertasida bayon etilgan shartlarga muvofiq hamda ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan eng past narxda shartnomani shakllantiradi. 3. Tuzilgan shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni shartnomalarning yagona reyestriga kiritadi. 4. Agar xarid qilish tartib-taomilining yakuniga ko'ra faqat tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchigina ishtirok etgan bo'lsa, davlat buyurtmachisi va ishtirokchi o'rtasida elektron shaklda savdolashish imkonini yaratadi va savdolar yakuniga ko'ra shartnomani shakllantiradi yoki xarid qilish tartib-taomilini o'tkazilmagan deb topadi.	Avtomatik ravishda

2-ILOVA

Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat xaridlarining reja-jadvaliga muvofiq e'lon joylashtiradi.	Ixtiyoriy ravishda
2-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	E'lon joylashtirilgan vaqtdan e'tiboran auksion bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini qabul qilishni boshlaydi.	E'lon joylashtirilgan vaqtdan boshlab kamida besh ish kuni davomida
3-bosqich	Ishtirokchi	Auksion davomida narx bo'yicha takliflarni cheklanmagan miqdorda berishi mumkin.	E'londa ko'rsatilgan muddat davomida
4-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Auksion yakuniga ko'ra berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan ishtirokchini auksion g'olibi sifatida saralab oladi hamda u va davlat buyurtmachisi o'rtasidagi shartnomani shakllantiradi. 2. Tuzilgan shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni Shartnomalarning yagona reyestriga kiritadi. 3. Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, auksionni o'tkazilmagan deb hisoblanadi.	Avtomatik ravishda

3-ILOVA

Eng yaxshi takliflarni tanlash vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Davlat buyurtmachisi	1. Toq sonli va kamida besh nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasini tuzadi. 2. Xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi. 3. Tanlash o'tkazish haqidagi e'lon, tanlash bo'yicha xarid qilish hujjati loyihasi matnini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun elektron shaklda kiritadi.	Zaruratga ko'ra
2-bosqich	Xarid komissiyasi	Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqadi va kelishadi.	Zaruratga ko'ra
3-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Xarid komissiyasi bilan kelishilgan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini ERI bilan tasdiqlaydi.	Zaruratga ko'ra
4-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Tasdiqlangan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shuningdek, tanlash o'tkazish haqidagi e'lonni davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiradi.	Takliflarini qabul qilish muddati tugashidan kamida besh ish kuni oldin
5-bosqich	Ishtirokchi	Tanlash bo'yicha elektron taklifni o'zining shaxsiy kabineti orqali taqdim etadi.	E'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay
6-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Tanlash taklifi ishtirokchilar, xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari va boshqa shaxslar tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'ymaydi, bundan ushbu taklifni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. 2. Ishtirokchi taklif etayotgan narxning boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. 3. Ishtirokchi tomonidan taklif etilayotgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilishi majburiy bo'lgan maydonlar to'ldirilmagan bo'lsa yoki biriktirilishi majburiy bo'lgan fayllar mavjud bo'lmasa, rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi.	Tanlash takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar
7-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlash takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolariga ko'rish imkoniyatini beradi.	Takliflarni qabul qilish muddati tugagandan so'ng darhol
8-bosqich	Xarid komissiyasining mas'ul kotibi	1. Biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshiradi. 2. Tanlash taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo'yicha qarorni uning asoslangan sabablari bilan tasdiqlash uchun xarid komissiyasiga kiritadi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
9-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Ishtirokchining tanlash taklifi talablarga mos kelmaganligi to'g'risidagi qarorni ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboradi.	Qaror qabul qilingan kunda

10-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Tanlash taklifining miqdoriy ko'rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
11-bosqich	Xarid komissiyasi	Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lmagan taklifning texnik qismining mezonlari (ekspert mezonlari) bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini ovoz berish orqali taqqoslashni amalga oshiradi va baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
12-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib: tanlash taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda); tanlash takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra tanlashda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi. 2. Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa (ball usulidan foydalanganda) yoki bir xil narx taklif qilgan bo'lsa (eng past narx usulidan foydalanganda), tanlash taklifini barchadan oldin joylashtirgan ishtirokchini g'olib deb topadi. 3. Tanlash takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalarini avtomatik ravishda shakllanadigan dastlabki elektron bayonnomada qayd etadi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
13-bosqich	Xarid komissiyasi a'zolari	Dastlabki elektron bayonnomani ERIdan foydalangan holda imzolaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
14-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Dastlabki elektron bayonnomani muhokama uchun joylashtiradi.	Dastlabki bayonnoma rasmiylashtirilgan kundan e'tiboran ikki ish kunida
15-bosqich	Xarid komissiyasi	1. Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar tushmagan bo'lsa, bu to'g'risida tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtiradi. 2. Tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha tanlash ishtirokchilaridan e'tirozlar tushganda ushbu e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
16-bosqich	Davlat buyurtmachisi	G'olib deb topilgan ishtirokchi bilan elektron shaklda shartnoma tuzadi.	G'olib aniqlangan vaqtdan boshlab o'n ish kunida
17-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Tuzilgan shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni Shartnomalarning yagona reyestriga joylashtiradi.	Avtomatik ravishda

4-ILOVA

Tender vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Davlat buyurtmachisi	1. Toq sonli va kamida yetti nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasini tuzadi. 2. Xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi. 3. Tender o'tkazish haqidagi e'lonning, tender bo'yicha xarid qilish hujjatining va shartnoma loyihasining matnini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun elektron shaklda kiritadi.	Zaruratga ko'ra
2-bosqich	Xarid komissiyasi	Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqadi va kelishadi.	Zaruratga ko'ra
3-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Xarid komissiyasi bilan kelishilgan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini ERI bilan tasdiqlaydi.	Zaruratga ko'ra
4-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Tasdiqlangan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shuningdek, tender o'tkazish haqidagi e'lonni davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiradi.	Takliflarini qabul qilish muddati tugashidan kamida o'n ikki ish kuni oldin va ko'pi bilan o'ttiz ish kuni oldin
5-bosqich	Ishtirokchi	Tender taklifini elektron taklif ko'rinishida o'zining shaxsiy kabineti orqali taqdim etadi.	E'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay
6-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Tender taklifi ishtirokchilar, xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari va boshqa shaxslar tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'ymaydi, bundan ushbu taklifni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. 2. Ishtirokchi taklif etayotgan narxning boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. 3. Ishtirokchi tomonidan taklif etilayotgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilishi majburiy bo'lgan maydonlar to'ldirilmagan bo'lsa yoki biriktirilishi majburiy bo'lgan fayllar mavjud bo'lmasa, rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi.	Tender takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar
7-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tender takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolariga ko'rish imkoniyatini beradi. 2. Tender taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar tender taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so'ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta'minlaydi.	Takliflarni qabul qilish muddati tugagandan so'ng darhol

8-bosqich	**Xarid komissiyasining mas'ul kotibi**	1. Biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tender taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshiradi. 2. Tender taklifi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi bo'yicha qarorni uning asoslangan sabablari bilan tasdiqlash uchun xarid komissiyasiga kiritadi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
9-bosqich	**Davlat xaridlarining elektron tizimi**	Tender taklifining miqdoriy ko'rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
10-bosqich	**Xarid komissiyasi**	Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lmagan taklifning texnik qismining mezonlari (ekspert mezonlari) bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini ovoz berish orqali taqqoslashni amalga oshiradi va baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
11-bosqich	**Davlat xaridlarining elektron tizimi**	1. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib: tender taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda); tender takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra tenderda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi. 2. Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa (ball usulidan foydalanganda) yoki bir xil narx taklif qilgan bo'lsa (eng past narx usulidan foydalanganda), tender taklifini barchadan oldin joylashtirgan ishtirokchini g'olib deb hisoblaydi. 3. Tender takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalarini avtomatik ravishda shakllanadigan elektron bayonnomada qayd etadi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
12-bosqich	**Xarid komissiyasi a'zolari**	Elektron bayonnomani ERIdan foydalangan holda imzolaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
13-bosqich	**Davlat buyurtmachisi**	G'olib deb topilgan ishtirokchi bilan elektron shaklda shartnoma tuzadi.	G'olib aniqlangan vaqtdan boshlab o'n ish kunida
14-bosqich	**Davlat xaridlarining elektron tizimi**	Tuzilgan shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni Shartnomalarning yagona reyestriga joylashtiradi.	Avtomatik ravishda

5-ILOVA

Hadli kelishuv vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Korporativ buyurtmachisi	1. Toq sonli va kamida yetti nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasini tuzadi. 2. Xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi. 3. Hadli kelishuv orqali xaridlarni amalga oshirish haqidagi e'lonning, xarid qilish hujjatlarining, hadli kelishuv va shartnoma loyihasining matnini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun elektron shaklda kiritadi.	Zaruratga ko'ra
2-bosqich	Xarid komissiyasi	Xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqadi va kelishadi.	Zaruratga ko'ra
3-bosqich	Korporativ buyurtmachisi	Xarid komissiyasi bilan kelishilgan xarid qilish hujjatlarini ERI bilan tasdiqlaydi.	Zaruratga ko'ra
4-bosqich	Korporativ buyurtmachisi	Xarid qilish hujjatlari, hadli kelishuv va shartnoma loyihasi, shuningdek, hadli kelishuv orqali xaridlar o'tkazish haqidagi e'lonni davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiradi.	Takliflarini qabul qilish muddati tugashidan kamida o'n ikki ish kuni oldin va ko'pi bilan o'ttiz ish kuni oldin
5-bosqich	Ishtirokchi	Hadli kelishuv taklifini elektron taklif ko'rinishida o'zining shaxsiy kabineti orqali taqdim etadi.	E'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay
6-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	1. Hadli kelishuv taklifi ishtirokchilar, xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari va boshqa shaxslar tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'ymaydi, bundan ushbu taklifni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. 2. Ishtirokchi taklif etayotgan narxning boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. 3. Ishtirokchi tomonidan taklif etilayotgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilishi majburiy bo'lgan maydonlar to'ldirilmagan bo'lsa yoki biriktirilishi majburiy bo'lgan fayllar mavjud bo'lmasa, rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi.	Hadli kelishuv takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar
7-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning hadli kelishuv takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolariga ko'rish imkoniyatini beradi.	Takliflarni qabul qilish muddati tugagandan so'ng darhol
8-bosqich	Xarid komissiyasining mas'ul kotibi	1. Biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining hadli kelishuv taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshiradi. 2. Hadli kelishuv taklifi xarid qilish hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi bo'yicha qarorni uning asoslangan sabablari bilan tasdiqlash uchun xarid komissiyasiga kiritadi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda

9-bosqich	**Davlat xaridlarining elektron tizimi**	Hadli kelishuv taklifining miqdoriy ko'rsatkichlarini baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
10-bosqich	**Xarid komissiyasi**	Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lmagan taklifning texnik qismining mezonlari (ekspert mezonlari) bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini ovoz berish orqali taqqoslashni amalga oshiradi va baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
11-bosqich	**Davlat xaridlarining elektron tizimi**	1. Xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq bo'lgan ishtirokchilarni aniqlaydi. 2. Xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq bo'lgan ishtirokchilarning soni uchtadan kam bo'lgan taqdirda, hadli kelishuv bo'yicha xarid qilish tartib-taomilini bo'lib o'tmagan deb hisoblaydi. 3. Hadli kelishuv takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalarini avtomatik ravishda shakllanadigan birinchi bosqichning elektron bayonnomasida qayd etadi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
12-bosqich	**Xarid komissiyasi a'zolari**	Elektron bayonnomani ERIdan foydalangan holda imzolaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
13-bosqich	**Korporativ buyurtmachi**	Hadli kelishuv tartib-taomilining birinchi bosqichi natijalariga ko'ra xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq bo'lgan kamida uch nafar ishtirokchi bilan hadli kelishuvni imzolaydi.	G'olib aniqlangan vaqtdan boshlab o'n ish kunida
14-bosqich	**Korporativ buyurtmachi**	1. Hadli kelishuv tartib-taomilining ikkinchi bosqichida korporativ buyurtmachi shartnomani tuzish uchun birinchi bosqichdan o'tib, hadli kelishuv tuzilgan barcha ishtirokchilarga ishtirok etish uchun davlat xaridlarining elektron tizimi orqali narx so'rovini yuboradi. 2. Narx so'rovi va yakuniy baholash natijalariga ko'ra aniqlangan g'olib bilan hadli kelishuvning umumiy summasi va amal qilish muddati doirasida shartnoma tuzadi.	Hadli kelishuvning amal qilish muddati doirasida
15-bosqich	**Davlat xaridlarining elektron tizimi**	Tuzilgan shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni Shartnomalarning yagona reyestriga joylashtiradi.	Avtomatik ravishda

"O'zagrolizing" AJning
2025 -yil 26 may dagi
47 -sonli buyrug'iga
2-ilova

"O'zagrolizing" AJning xarid komissiyasi a'zolari TARKIBI

1.	**Komissiya raisi** A.Sh.Nasirdinov	-	"O'zagrolizing" AJ Boshqaruv raisining o'rinbosari
	Komissiya a'zolari:		
2.	E.S. Qurbonov	-	Moliyaviy-iqtisodiy tahlil boshqarmasi boshlig'i
3.	N.T. Meliboyev	-	Marketing va sotishni tashkil etish boshqarmasi boshlig'i
4.	Sh.Sh. Qodirova	-	Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi boshlig'i
5.	E.K. Allamov	-	Yuridik boshqarma boshlig'i
6.	X.U. Xamdamov	-	Xo'jalik ta'minoti bo'limi boshlig'i
7.	T.N. Eshonqulov		AKTni rivojlantirish va tadbiq etish bo'limi
	Komissiya kotibi:		
8.	S.B. Tuxtapulatov	-	Xo'jalik ta'minoti bo'limi I toifali mutaxassisi